

## O'ZBEKISTONDA ISSIQLIK ENERGETIKASI KORXONALARI RIVOJLANISHINING TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI

**Begmullaev Otabek Irisaliyevich**

Toshkent davlat texnika universiteti, dotsent

[o.begmullaev@gmail.com](mailto:o.begmullaev@gmail.com)

**Soatov Foziljon Yuldashevish**

Toshkent davlat texnika universiteti, dotsent

**Irisaliyev Aybek Otabekovich**

Toshkent davlat texnika universiteti, talaba

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Issiqlik energetikasidagi strategik yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish kelgusida yirik energetika loyihibalarini amalga oshirish, barqaror rivojlanish mexanizmlarning tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlari ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, xomashyo, raqobatchilar, rag'batlantirish, cheklashlar, jamiyat.

### **ANNOTATION**

*In this article, the organizational and economic features of the mechanisms of sustainable development, support and encouragement of strategic directions in thermal energy, the implementation of large energy projects in the future are considered.*

**Key words:** thermal power plants, thermal power centers, raw materials, competitors, incentives, restrictions, society

### **KIRISH**

Jahonning global raqamli iqtisodiyoti va O'zbekiston Respublikasida energiya resurslari taqchilligi sharoitida resurslarni tejash yoki qayta tiklanuvchi energiya manbalarini almashtirish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Zamonaviy rivojlangan Yevropa davlatlarida bu energiya resurslarining energiya balansidagi ulushi 20 foizga yaqinni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich ancha past. Shunga ko'ra, mamlakatimizda issiqlik energetikasini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar zarur.

O‘zbekiston Respublikasida issiqlik energetikasini tashkiliy-iqtisodiy barqaror rivojlantirish tendensiyalari va uning faoliyatining ayrim jihatlarini o‘rganadi. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekistonda issiqlik energetikasi korxonalarini barqaror rivojlantirishning samarali shakllarini yanada shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida energetika tizimining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri tarmoqning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat bo‘lib, bu O‘zbekistonda, jumladan, issiqlik energetikasi sohasida yuqori energiya xavfsizligiga erishish imkonini bera oladi. Bu bosqichda issiqlik energetikasi sohasida energetika siyosatini amalga oshirishga xos bo‘lgan maxsus mexanizm va vositalarni ishlab chiqish va takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Issiqlik energetikasidagi strategik yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish kelgusida yirik energetika loyihalarini amalga oshirish uchun asos bo‘lmoqda. Umuman olganda, barqaror rivojlanish mexanizmlarning tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlarining kombinasiyasi sifatida ifodalanishi mumkin.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning bir necha elementlardan iborat ekanligini, Bakanov D.S., Maxmetova A.E. o‘z ilmiy nashrlarida o‘rganib chiqishgan hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmga quyidagilar kiritilgan<sup>1</sup>:


- rag‘batlantirish tizimlari bilan iqtisodiy rivojlanish shakllari va usullari;
- taktik va operativ boshqaruv shakllari va usullari;
- o‘z-o‘zini tashkil etish elementlari bilan rivojlanish tizimi va parametrlarini shakllantirish vositalari hamda usullari;
- asoslangan moliyaviy-iqtisodiy cheklashlar tizimi;
- boshqaruv qarorlari uchun qonunchilik bazasinining axborot tizimlari.

Yuqoridagilardan kelib chiqib issiqlik energetikasidagi mavjud korxonalarning barqaror rivojlanishni ta’minalashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minalash konsepsiysi”ga mos ravishda tubdan qayta ko‘rib chiqish talab etiladi.

Kuznetsov I.A.ning fikriga ko‘ra rivojlanish mexanizmi korxona tomonidan o‘zini o‘zi takomillashtirishni ta’minalaydi, bu boshqaruv obekti va subekti bir-biri bilan barqaror rivojlanish yo‘nalishi bo‘yicha mos keladigan boshqaruv jarayonini amalga oshirishdir. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, quyidagi sxema ishlab chiqildi. Sanoat korxonasining faoliyat yuritish tizimida barqaror rivojlanish mexanizmining o‘rni keltirilgan (1-rasm).

<sup>1</sup> Баканов Д.С., Махметова А.Е. О содержании организационо-экономического механизма управления предприятиями газовой промышленности / Д.С. Баканов, А.Е. Махметова // Вестник ТГУ. – 2011. – выпуск 12 (104) – С. 95.

## NATIJALAR



**1-rasm. Barqaror rivojlanish mexanizmining korxona faoliyati tizimidagi o‘rnini<sup>1</sup>**

Bu sxemada bozor, xomashyo, raqobatchilar, marketing, davlat qonunchiligi va nazorati, cheklashlar, jamiyat, import, ma'lumotlar va korxona brendi makro darajada tashqi muhitni tashkil qilgan bo'lsa, ichki muhit kadrlar malakasi uchun rag'batlantirish muammolarini hal qilish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli sohalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Issiqlik energetikasining uzlusiz barqaror rivojlanishi va mamlakatning energiya xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'naliishlari quyidagilar: texnik qayta jihozlash va qurish asosida energiya resurslarini yoqish, o'zgartirish va tashishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish, yangi innovatsion ishlab chiqilgan issiqlik energetika obektlarini yaratish, issiqlik energetikasi sohasida investorlar uchun jozibador iqtisodiy muhitni yaratish, buning uchun tarmoqning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini takomillashtirish, issiqlik energiyasining yangi bozorlarini shakllantirishdan iborat.

<sup>1</sup> Saitkamolov M.S. O'zbekiston Respublikasi issiqlik energetikasi korxonalarini barqaror rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish / diss. T., 2023

## MUHOKAMA

Issiqlik energetikasini rivojlantirishning eng muhim muammolari quyidagilardan iborat: milliy energetika tizimlarida tuzilmalarni joylashtirish va ularning faoliyatini tartibga solish yoki rag‘batlantirish usullari hamda vositalarini tanlash, bu iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, mamlakat issiqlik energetikasini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligi va milliy xavfsizligini ta’minlashda alohida rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda energetika sohasini isloh qilish natijasida sohani tashkil etish va iqtisodiy rivojlantirish modelida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ya’ni energiya va quvvatlar bozorining ulgurji va chakana savdosi ishtirokchilari o‘rtasida bozor narxlarini davlat tomonidan tartibga solish amalga oshirilmoqda.

Bozorda monopol mavqega ega bo‘lgan korxonalarga xos bo‘lgan holatlarning ortishini oldini olish maqsadida davlat energetika korxonalarining huquqiy va iqtisodiy holatini belgilovchi tartibga solish qoidalari joriy etildi. Issiqlik energetikasining o‘zida ham, tarmoq subektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar mazmunidagi obektiv o‘zgarishlar ham davlat tomonidan tartibga solish tizimini doimiy ravishda o‘zgartirishni talab qiladi. Ya’ni, energiya ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimining o‘zgarishi ta’siri ostida sanoat va issiqlik energetikasi o‘rtasidagi tashkiliy va iqtisodiy rivojlanishning o‘zaro ta’siri tizimli dinamik ravishda o‘zgarib turadi. Bundan tashqari, tizimning o‘zgarishi munosabatlar jarayonining tashkiliy shakllari, iqtisodiy va huquqiy mazmuni o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Jamiyat manfaatlarini himoya qiluvchi yuqori nazorat qiluvchi organlar “sanoat aralashuvi” deb ataladigan vaziyatning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi va ishlab chiqaruvchilar faoliyatini nazorat qilishga, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning manfaatlarini hisobga olishga chaqiriladi.

Issiqlik energetikasini barqaror rivojlantirish tizimi boshqa rivojlanish tizimlaridan sezilarli darajada farq qiladi. SHu bilan birga, sanoat holatining umumiy darjasini, ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan parametrlar soni, ushbu parametrlarning holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning noaniqlik darjasini uni murakkab ko‘p parametrli tizim sifatida tasniflash imkonini beradi. Asosiysi o‘zaro bog‘liq va barqaror rivojlanish parametrlari issiqlik energetikasi sanoatining iqtisodiy, texnologik, moliyaviy va ekologik jihatlari hisoblanadi.

Ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lgan issiqlik energetikasi ham tijorat, ham davlat tuzilmasi bo‘lib, daromad olish va milliy iqtisodiyotning mamlakat energetikasiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Ushbu ikki tomonlamalik sanoatni rivojlantirishdagi yondashuvlarni shakllantirishi sezilarli darajada murakkablashtiradi, ular tashkiliy, iqtisodiy va jamoat manfaatlari muvozanatini

saqlashga to‘liq yo‘naltirilishi, energiya samaradorligini oshirish va energiya tejash strategiyasini ishlab chiqish uchun muhim rag‘batlarni o‘z ichiga olishi kerak.

O‘zbekistonda energetika strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bozor munosabatlarining raqobatbardosh modelini joriy etish, tovar-xizmatlarning bozorini yaratish va hokazolarga qaratilgan umumiyligi iqtisodiy strategiyaga muvofiq amalga oshirildi. Biroq, shu bilan birga, “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiysi” shakllantirilgandan boshlab davlat, birinchi navbatda, bozor munosabatlarini tartibga soluvchi sifatida qaraladi, bundan tashqari, bu boradagi roli ham muhim ahamiyat kasb etishi zarurligi mustahkamlangan. Lekin xo‘jalik yurituvchi subekt nuqtai nazaridan u o‘z funksiyalarini cheklaydi.

Ikkinchisi, davlat o‘zining energetika strategiyasida energetika sohasida tabiiy monopoliyalarni xususiylashtirishni isloh qilish g‘oyasiga yotganini anglatadi.

“2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiysi”ni amalga oshirish jarayonida O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan yangi vazifalari va ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq kengaytirilishini ta’minlanadi. Konsepsiyaning eng muhim maqsadlari sanoatning barqaror rivojlanishi, shu jumladan 2019-yil oxirida boshlangan koronavirus pandemiyasining, global iqtisodiy inqirozning natijasida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni hisobga olgan. Konsepsiya 2030 yilgacha erishilishi kerak bo‘lgan bir qancha ko‘rsatkichlar qayd etilgan, jumladan:

- quvvatni 12,9 GVt dan 29,3 GVt ga oshirish;
- elektr energiyasini ishlab chiqarishni 63,6 mlrd. kVt/s.dan 120,8 mlrd. kVt/s.gacha oshirish;
- tabiiy gaz iste’molini 16,5 milliard kub metrdan 12,1 milliard kub metrgacha kamaytirish;
- elektr energiyasini uzatishda yo‘qotishlarni 2,35 foizga va taqsimlashda yo‘qotishlarni 6,5 foizga kamaytirish (2019 yilga nisbatan 1,85 barobar kam)<sup>1</sup>

Ushbu rejalarining amalga oshirilishi O‘zbekistonda 10 yil ichida energiya iste’moli qariyb ikki baravar oshishi haqidagi prognozlarni hisobga olgan holda mamlakatning energetik xavfsizligini ta’minlaydi.

SHu bilan birga, bugungi kunda ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy qismini (taxminan 85 foizini) issiqlik elektr stansiyalari tashkil etadi, shu munosabat bilan 2030 yilga kelib IES ning 15,6 GVt yangi va modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

<sup>1</sup> “2020-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасини электр энергияси билан таъминлаш концепцияси”

Shu bilan birga, issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqarish quvvatlarining 6,4 GVt jismonan eskirgan uskunalar foydalanishdan chiqarilishi prognoz qilinmoqda.

Umumiy quvvati qariyb 10 GVt (Sirdaryo, Navoiy, Tolimardon, Taxiatosh, To‘raqo‘rg‘on IESlar va boshqalarda) zamonaviy BGQ kombinasiyalashgan tartibda elektr ishlab chiqaruvchi bloklarini qurish rejalashtirilgan.

Energetika strategiyasini tahlil qilish asosida raqamli iqtisodiyotning hozirgi sharoitida energetika siyosatining quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Issiqlik energetikasining barqaror rivojlanishini saqlash – energetika sanoatining barcha sohalari uchun raqobatbardosh modelni shakllantirish, bozorni yaratish, innovatsion bozor mexanizmlarini joriy etish;
2. Asosiy fondlar, resurs bazasi va investitsiyalarni jalg qilish amortizasiyasi muammolarini hal qilish;
3. Energetikaga ichki iqtisodiyotning lokomotivi, byudjet donori va sanoatni qo‘llab-quvvatlajvchi sifatida munosabatni shakllantirish;
4. Haqiqiy amaliyot va energiya siyosatining e’lon qilingan tamoyillari o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish.

Hozirgi holatni belgilab beruvchi muammolar va issiqlik energetikasini rivojlantirish paradigmasini va O‘zbekistonda energetika siyosatini amalga oshirishga yondashuvlarni o‘zgartirish zarurati hozirgi bosqichda qo‘llanilayotgan davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining strategik ustuvorliklar, iqtisodiyotning rivojlanishi va uning tarkibiy qismlarining o‘zaro muvofiqligi bilan bog‘liq. Sanoatdagi tarkibiy nomutanosibliklarni bartaraf etish va yanada xavfning ortishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun issiqlik-energetika sanoatining reproduktiv bazasini iqtisodiy va hududiy xususiyatlarni, alohida hududlar bo‘yicha iste’mol prognozlarini hisobga olgan holda rivojlantirish va optimallashtirish yo‘llarini kompleks rejalashtirish zarur. Biroq, bu sohada maqbul qarorlar faqat to‘liq ma’lumotni hisobga olgan holda qabul qilinishi mumkin, uni taqdim etish juda qiyin (raqobatdosh investorlar ma’lumot almashishdan manfaatdor emas, iste’mol prognozlari har doim ham keng tarqalgan emas. Tarmoq kompaniyalarining investitsiya dasturlari muntazam ravishda ko‘rib chiqiladi va boshqalar) bo‘lgan jihatlar mavjud. SHu bois mamlakat energetika tizimini rivojlantirishni optimallashtirish uchun tartibga solish samaradorligi yetakchi rol o‘ynaydigan markazlashtirilgan strategik rejali yondashuv ko‘proq maqsadga muvofiqdir.

Elektr ta’minoti tizimlari issiqlik va energiya tizimlarining ajralmas qismi bo‘lib, elektr energiyasi iste’molchilarining barcha guruhlari texnologik jadvallari bo‘yicha energiya tizimlarining yuklanish jadvallarini shakllantirishda bevosita ishtirot etadi, elektr ta’minotining ishonchliligi va sifati bo‘yicha yuqori talablarga javob beradi.

Zamonaviy energiya iste'molchilari va alohida sanoat korxonalarining elektr energiyasi, yirik sanoat va elektr transport inshootlari tomonidan energiya tizimidagi elektr energiyasini ta'minlash sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq, issiqlik energetikasining milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatiga qaramay, bu sanoat iqtisodiy asosining bir qismi bo'lib, barcha turdag'i mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda bilvosita ishtirok etuvchi, aholi uchun maqbul turmush darajasini ta'minlab, faqat ishlab chiqarish va yordamchi ishlab chiqarish vazifasini bajaradi.

Energiya tizimi boshqa tizimlardan sezilarli darajada farq qiladi. SHu bilan birga, tarmoq holatining umumiy darajasi, ishlab chiqilishi kerak bo'lgan parametrlar soni, ushbu parametrarning holati to'g'risidagi ma'lumotlarning noaniqlik darajasi uni murakkab ko'p parametrli tizim sifatida tasniflashga olib keladi. Asosiy o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan rivojlanish parametrlari issiqlik energetikasi sanoatining iqtisodiy, texnologik, moliyaviy va ekologik jihatlari hisoblanadi. Ularning noqulay o'zgarishlari muqarrar ravishda fundamental iqtisodiy funksiyalarni amalga oshirishda va issiqlik energetikasini barqaror rivojlantirishda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Faoliyat darajalari bo'yicha issiqlik energetikasini barqaror rivojlantirish tizimining parametrlari tarkibi kengaytirilgan asosda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1. Makrodaraja (milliy iqtisodiyot doirasida issiqlik energetikasini rivojlantirish parametrlari):

- O'zbekistonda issiqlik energetikasining texnik darajasi va holati;
- issiqlik energetikasining xalq xo'jaligini rivojlantirishdagi o'rni;
- energetika sohasida ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini rejalshtirish;
- issiqlik energetikasi obektlariga kapital qo'yilmalar;
- issiqlik energetikasi obektlariga qo'yilgan investitsiyalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi.

2. Mezodaraja (turli tashkiliy-huquqiy shakl va tarmoqlar subektlari doirasida issiqlik energetikasini barqaror rivojlantirish parametrlari):

- sanoat korxonasining issiqlik energetikasi iqtisodiyoti va boshqaruvi xususiyatlari;
- issiqlik energetikasi korxonalarining asosiy fondlari;
- issiqlik energetikasi korxonalarining aylanma mablag'lari;
- issiqlik energetikasi korxonalarining rivojlanishini ta'minlash uchun kadrlar;
- issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlarining energiya mahsulotlarining tannarxi;
- issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlarini ta'mirlashga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish hamda rejalshtirish;

- issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlarining ishlab chiqarishxo‘jalik faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy natijalari.

Ayni paytda zamonaviy energiya tejamkor energetika bloklarining quvvati 2825 MVtni yoki issiqlik elektr stansiyalari umumiyligini quvvatining 25,6 foizini tashkil etadi. 2019-yilda respublikada ishlab chiqarilgan umumiyligini energiyasining 89,6 foizi IESlar tomonidan ishlab chiqarilgan. SHu bilan birga, yagona elektr energetika tizimining eng yuqori cho‘qqilarida ishlayotgan energiya bloklarining umumiyligini quvvati 8,6 ming MVtni tashkil etadi.

Shunday qilib, tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari - bu korxonaning barqaror rivojlanishining muayyan muammolarini hal qilishning hujjatlashtirilgan va maqsadli jarayoni bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirish va tartibga solish usullari va me’yorlari to‘plamiga asoslangan boshqaruv hamda o‘zini o‘zi boshqaruvchi mexanizm elementlarini o‘z ichiga oladi.

Korxonaning barqaror rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy jihatlari - bu korxonaning barqaror faoliyati maqsad va vazifalariga erishishga qaratilgan ta’sir ko‘rsatish choralarini va faoliyatining turli tomonlarini baholash vositalarini birlashtirgan murakkab tizimdir. SHu bilan birga, korxona rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari uning raqobatbardosh, uzoq muddatli va muvozanatli rivojlanishi uchun javobgar bo‘lgan umumiyligini boshqaruv mexanizmining bir qismidir.

## XULOSA

Mamlakatimizda issiqlik energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini kegaytirish hamda sohani yanada rivojlanish uchun quyidagi rag‘batlantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- rivojlangan mamlakatlarda amalda mavjud bo‘lgan “yashil” sertifikat (“Green Certificate”) tizimini joriy qilish;
- ayrim tarmoqlarda issiqlik energiya manbalarini iste’mol qilish va ishlab chiqarish bo‘yicha majburiy kvotalarni joriy qilish;
- energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish;
- issiqlik energiya manbalari elektrenergiyasi ishlab chiqaruvchilarning tarmoqqa ulanishi va iste’moldan ortiqcha enegiyani tarmoqqa uzatish va sotishni joriy qilish;
- elektroenergiya bozoriga erkin kirishni ta’minlash, jumladan, xususiy sektorda issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va o‘z ehtiyojidan ortgan qismini sotishga ruxsat berish;
- qazib olinuvchi energiya manbalaridan foydalanishda me’yoriy chegaralardan ortiqcha zararli moddalarni chiqorganlik uchun jarimalar va soliqlarni joriy qilish.

- energiyaning iste'molchilarini, yetkazib beruvchilarini va ishlab chiqaruvchilarining manfaatlari uyg'unligrini ta'minlash;
- energiya iste'mol qiladigan, energiya tejaydigan uskunalar, materiallar, konstruksiyalar, transport vositalari va energiya resurslarini sertifikasiyalash hamda ularga imtiyozlar berish;
- xususiy mablag'lar hisobidan yoki qaytariladigan asosdagi energiya tejamkorligi dasturlarini amalga oshirish.

Yuqorida ko'rib o'tilgan issiqlik energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirishning qator tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish mamlakatimiz umumiy energiya iste'molida issiqlik energiyasi ulushining oshishiga, o'z navbatida, yuqori iqtisodiy samaraga erishish, atrof-muhitga salbiy ta'sirning kamayishi va oxir oqibatda barqaror rivojlanishga erishish imkonini beradi.

Issiqlik energetikasi korxonasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlarini takomillashtirilgan konsepsiysi sanoatning rivojlanish miqyosini ko'rsatadi va strategik issiqlik energiyasi ishlab chiqarish uchun texnologik usullar majmuasidan foydalanish bilan bog'liq tahliliy masalalarning chuqurligini belgilaydi. Energetika sanoati korxonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmida vositalarning rolini aniqlash uchun asos bo'lgan korxona uchun strategik rejalar tuzishda zamin yaratadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "2020-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасини электр энергияси билан таъминлаш концепцияси" <https://minenergy.uz/uz/lists/view/28>
2. Баканов Д.С., Махметова А.Е. О содержании организационно-экономического механизма управления предприятиями газовой промышленности / Д.С. Баканов, А.Е. Махметова // Вестник ТГУ. – 2011. – выпуск 12 (104) – С. 95.
3. Saitkamolov M.S. O'zbekiston Respublikasi issiqlik energetikasi korxonalarini barqaror rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish / diss. T., 2023
4. О.Бегмуллаев, А.Ирисалиев Организационно - экономический механизм повышения эффективности деятельности предприятий энергетической отрасли и ее основные элементы, Multidisciplinary Scientific Journal, Scholar issn: 2181-4147 volume 2/issue 3/2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10605062>